Davlat xizmatchisi boshqaruv faoliyati va dunyoqarashida axloqiy madaniyatning ustuvorligi ijtimoiy tafakkurni chuqur anglashiga, bu esa, o‘z navbatida, jamiyat ehtiyojlarini qondirishda samarali qarorlar qabul qilishga zamin hozirlaydi. Zero, keng dunyoqarash – qaror qabul qilish va ish vazifalarini samarali bajarishda ijtimoiy jarayonlarni va shaxslararo o‘zaro ta’sirlarni tushunish va hisobga olish qobiliyatidir. Ijtimoiy fikr jamiyat umumlashgan qarashlarining ustuvor xulosalari bo‘lsa, ijtimoiy fikrlash ularni anglagan holda o‘z faoliyati qarorlari va xatti-harakatlarini ularga muvofiqlashtirish bilan bog‘liq. Ijtimoiy fikrlashning, ayni vaqtda, falsafiy bo‘lishi esa xizmatchilarga o‘z vazifalarini yanada to‘g‘ri bajarishlariga va davlat institutlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu kabi, davlat xizmatchilari uchun ijtimoiy fikrlashning bir qator afzalliklari bor.[1] Avvalo, aytish lozimki, keng dunyoqarash fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, ish, jamiyat, hujjatlar, me’yorlar, strategik maqsad va manfaatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fikrlash xizmatchida o‘zini boshqa odamlarning o‘rniga qo‘yib ko‘rish qobiliyatini o‘stiradi, fuqarolarning ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishiga ko‘maklashadi, bu esa xizmatlarning yaxshiroq va adolatliroq bo‘lishiga olib keladi.

Joldasbayev Oralbay Yernazarovich (Nukus davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi assistenti)

BERDAQ IJTIMOIY-FALSAFASIY QARASHLARIDA TENGLIK VA ADOLAT KATEGORIYALARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qoraqalpoq faylasufi Berdaqning falsafasida tenglik va adolat kategoriyalarining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni va roliga ta’siri, shuningdek, ularning qoraqalpoq falsafasidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinib, har tomonlama ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy munosabatlar, falsafa, madaniy va ma’naviy soha, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat, adolat, axloqiy tamoyillar.*

АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ РАВЕНСТВА И СПРАВЕДЛИВОСТИ В СОЦИО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ БЕРДАКА

Аннотация. *В данной статье подробно анализируется и всесторонне научно обосновано влияние категорий равенства и справедливости в философии каракалпакского философа Бердака на место и роль в социальной жизни общества, а также их значение в каракалпакской философии.*

Ключевые слова: *общественные отношения, философия, культурно-духовная сфера, общественные отношения, социальная справедливость, справедливость, моральные принципы.*

ANALYSIS OF THE CATEGORIES OF EQUALITY AND JUSTICE IN BERDAK'S SOCIAL-PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation. *This article deeply analyzes and comprehensively scientifically substantiates the influence of the categories of equality and justice in the philosophy of the Karakalpak philosopher Berdaq on the place and role of society in the social life of society, as well as their significance in Karakalpak philosophy.*

Keywords: *social relations, philosophy, cultural and spiritual sphere, social relations, social justice, fairness, moral principles.*

Kirish (Introduction). Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy falsafaning asosiy tadqiqot sohalaridan biri bo‘lib, ular jamiyatdagi shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi ongli va maqsadga yo‘naltirilgan aloqalarni o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar inson faoliyatining turli jabhalarida – iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamiz olimlardan R.Reimov, A.Berdimuratova, J.Bazarbayev, M.Niyazimbetov, S.Esnazarova, J.Biyimbetovlarning ilmiy izlanishlarida Berdaq falsafasiga oid axloqiy katergoriyalarning tahlillariga doir nazariy muammolar ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy adabiyotlarni o‘rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, sinergetik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, dialektik, tarixiylik va mantiqiylikning birligi, taqqoslash kabi tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan aloqalar [1;304-b.]. Jamiyat taraqqiyoti insonlar o‘rtasidagi ij-

[1] Комилов Н. ва б. Жамият қурилиши ва ижтимоий бошқарув. Т., “Академия”, 2007.

timoiy munosabatlarning barqarorligi va adolat tamoyillariga asoslanishiga bog‘liq. Har bir insonning huquq va imkoniyatlari teng bo‘lishi, unga nisbatan adolatli yondashuv qo‘llanilishi jamiyatdagi tinchlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Ijtimoiy falsafada adolat va tenglik masalalari keng tahlil qilingan. Ularning qarashlariga ko‘ra, adolat – jamiyatning asosiy negizi bo‘lib, u ijtimoiy tuzumning har bir qatlamida o‘z ifodasini topishi lozim. Ijtimoiy adolat faqat huquqiy normalar bilan cheklanmay, balki insonlarning kundalik hayotidagi munosabatlarida ham namoyon bo‘lishi kerak. Bunday tamoyillar nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki ma’naviy hamda axloqiy mezonlar asosida ham shakllanadi.

Ijtimoiy-falsafiy tarafdan adolat – bu jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Adolat tushunchasi tarixiy taraqqiyot davomida turli falsafiy maktablar tomonidan turlicha izohlangan bo‘lsa-da, uning asosida haqqoniylik, teng huquqlilik va axloqiy tamoyillarga sodiqlik yotadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a’zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o‘zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishi, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar gamini yeyishni anglatadi [2;10-b.]. Berdaq Ǵarǵabay ulı (1827–1900)–qaroqalpoq adabiyoti va falsafasida alohida o‘rin tutgan ulug’ shoir va mutafakkir bo‘lib, u o‘z ijodida xalqning dardu hasratlarini, adolat va erkinlikka intilishini ifodalagan. Mehnatkash xalq orasidan yetishib chiqqan Berdaq xalqparvarlik g‘oyalari bilan mashhur bo‘lib, uning asarlarida inson huquqlari, erkinlik, tenglik va adolat mavzulari keng yoritilgan. U jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, zulm va adolatsizlikka qarshi chiqib, o‘z fikrlari bilan xalqning qalbidan chuqur joy olgan. Uning ijodi nafaqat badiiy ahamiyatga ega, balki ijtimoiy-falsafiy jihatdan ham chuqur ma’no kasb etadi. Berdaq inson qadr-qimmati va ma’naviy poklikni himoya qilgan holda, jamiyat barqarorligi va adolatli tuzum uchun kurashgan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda uning qarashlarini ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar bilan bog‘lash mumkin. Masalan, Suqrot yaxshilik va adolat kabi tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qildi. Mutafakkir falsafasining asosida inson, uning hayoti, maqsadi, adolatli jamiyat yotadi. U yaxshilik va yomonlikni odamlar bilan suhbatlashish orqali aniqlash mumkin, dedi. Inson haqiqatni qancha chuqurroq bilsa, yomonlikka shunchalik kam qo‘l uradi. Yomonlik haqiqatni bilmaslik natijasida paydo bo‘ladi deb ko‘rsatadi. Demak, axloqiy kamolotning manbayi ham bilim, ya‘ni haqiqatni bilishdir.

Berdaq ham inson kamoloti va adolat tushunchalarini o‘z ijodida keng yoritgan. U insonning axloqiy pokligi va haqiqatga intilishi jamiyatning barqarorligi va adolatli tuzilishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Quyidagi misralari shunday fikrlarni ifoda etadi: Johillardan hech vaqt olma omonat, Ko‘tararsan oxirida yomonot, Bu zamonlar bo‘lib og‘ir alomat, Kimsa g‘amgin, kimsa shod bu zamonda.

Johillardan hech vaqt olma omonat bu misrada mutafakkir johil insonlarga ishonmaslikni, ulardan biror narsa qabul qilmaslikni tavsiya qiladi. “Omonat” so‘zi bu yerda faqat moddiy narsani emas, balki mas’uliyat, maslahat, g‘oya yoki fikrni ham anglatishi mumkin. Berdaq fikriga ko‘ra, johillardan olingan har qanday omonat insonni muammoga duchor qiladi, chunki johillik – bilim va tafakkur yetishmovchiligi natijasida noto‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi.

Agar inson johillarning maslahatiga ergashsa yoki ulardan omonat olsa, oxir-oqibat u yomon nom, ya’ni obro‘sizlanish va yomonotliq bilan tugaydi. Bu qatorda shoir johillarning ta’siri jamiyatdagi axloqiy va ma’naviy inqirozni keltirib chiqarishini nazarda tutadi. Axloqsiz yoki bilimsiz kishilar bilan muloqotda bo‘lish natijasida inson o‘z shaxsiy obro‘sini yo‘qotishi mumkin. Demak, yangi ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatganimizda ham bizga bilim zarur. Berdaq o‘z asarlarida insonni ilmli bo‘lishga, yomonlikdan qochishga undaydi.

Russoning ”Tengsizlik sabablari to‘g‘risida” asari tengsizlikning kelib chiqishini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Ushbu asarda Russo tengsizlik o‘zgarmas va abadiy tabiat qonuniyati emas, balki tarixiy hodisa deb yondoshadi. Russo diqqatining tenglik muammolariga qaratilishi tasodifiy emas. XVIII asr Fransiyasida iqtisodiy taraqqiyotning boshi bu masalani kun tartibiga qo‘ymoqda va u davrning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda edi. Russo ikki turdagi vertikal tengsizlikni ajratadi: a) yoshi va salomatligi bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy tengsizlik; b) turlicha imtiyozlar bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy tengsizlik [3;176-b.].

Berdaqning “Soliq” nomli sherida feodal jamiyat sharoitida mehnatkash xalq boshiga tushgan og‘ir yuklardan biri – soliq masalasi yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu ijodiy meros shoirning ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan tanqidiy qarashlarini va xalq manfaatlariga sadoqatini aks ettiradi. Berdaq asarlarida soliq tizimi mehnatkash xalqning iqtisodiy ahvolini og‘irlashtiruvchi, omil sifatida ko‘rsatilgan. “Undiradi och xalqdan, Yetim yig‘laydi shu bois, Boy omon qoldi soliqdan, Do‘xmat to‘lov bo‘ldi soliq”.

"Undiradi och xalqdan" Bu misrada kambag'al xalqning iqtisodiy yukni ko'tarishi tasvirlangan. Ijtimoiy tengsizlik nuqtayi nazaridan, soliqlar yoki boshqa iqtisodiy talablar orqali asosiy yukni kambag'allar zimmasiga yuklashi jamiyatda adolatsizlikni kuchaytiradi. Yetim yig'laydi shu bois Bu satr natijani ko'rsatadi: ijtimoiy tengsizlik natijasida eng zaif qatlam – yetimlar va kambag'allar eng ko'p zarar ko'radi. Berdaq ijtimoiy tengsizlikning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlarini o'z qarashlarida aks ettiradi.

Ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyat munosabatlarining tarixiy tiplari masalasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, sanoatlashgan jamiyatga qadar, sanoatlashgan jamiyat va postindustrial jamiyatlariga xos munosabatlarning: a) shaxsiy qaramlik; b) shaxs mustaqilligi; d) erkin shaxsdan iborat uch tipi ko'rsatilgan. Jamiyat va shaxs orasidagi aloqadorlikka ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashmoq lozim. Bu narsa, bir tomondan, shaxsning jamiyatga ta'siri turli davrlarda o'ziga xos namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, jamiyat turli davrlarda shaxs oldiga turli vazifalarni ko'yadi. Shunga ko'ra, Sharq madaniyatida donolik, botirlik, kamtarlik odillik kadrlangan; qadimiy Yunonistonda aqliy barkamollikka erishish yuksak baholangan; sanoatlashgan jamiyatta tadbirkorlik, tashabbuskorlik qadrlangan [4;120-b.].

Berdaqning ijtimoiy qarashlarida esa adolat va tenglik asosiy tamoyil sifatida ko'riladi. U o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning muvozanatini saqlashda adolatning muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Berdaq nazarida, jamiyat faqatgina adolatli tamoyillar asosida rivojlansa, unda shaxs ham o'z salohiyatini to'laqonli namoyon eta oladi. Uning she'riy va falsafiy merosida insonning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolatga intilishi, tenglik tamoyillariga sadoqat kabi g'oyalar yetakchi o'rin tutadi.

Shoir etdim, ko'zim ko'rganini yozdim,
Ko'kragimning sezib bilganini yozdim,
Zamon qislatidan sarg'aydim-azdim.
Bo'larmi deb yorqin kunlar xalq uchun. ("Xalq uchun" asaridan)

Demak, tarixiy jarayonda jamiyat shaxsga qo'yadigan talablar o'zgarib borgan bo'lsa-da, adolat va tenglik tamoyillari har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Berdaq qarashlarida bu tamoyillar jamiyat taraqqiyotining mezoni sifatida talqin etilgan bo'lib, uning ijtimoiy-falsafiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Hayot bilan faoliyat alanga va yorug'lik singari o'zaro chambarchas bog'langandir dep tarif beradi, bu fikrning to'g'riligini Berdaq hayoti va faoliyatiga aytilgandek bo'ladi. Berdaq jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar, burch va masuliyat tushunchalari alohida o'rin tutadi. Haqiqiy yigitning burchini xalq uchun xizmat qilishda ko'radi. Bu g'oya axloqiy jihatdan fidoyilik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi. Yigitning kuch-qudrati, qobiliyati va salohiyati faqat shaxsiy manfaatga emas, balki jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyoti yo'lida sarflanishi lozimligi ta'kidlanadi.

Yigit bo'lsang arslonday tug'ilgan,
Xizmat etgil doimo xalq uchun.
Yigit bo'lsa arslonday tug'ilgan,
Hech qachon da ish qilmas o'zi uchun.

Axloqiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu misralarda fidoyilik va vatanparvarlikni targ'ib qiladi. Yigit kishi o'z shaxsiy manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'ymasligi kerak. Bu esa fidokorlik va o'zga odamlar uchun xizmat qilish axloqiy burch ekanligini anglatadi.

Ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan esa ushbu misralar ijtimoiy birdamlik va jamoaviy hamkorlikni ifodalaydi. Jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun har bir shaxs o'z hissasini qo'shishi lozim. Agar har bir inson faqat shaxsiy manfaatlarini o'ylasa, jamiyatda nosog'lom muhit yuzaga kelishi mumkin.

Berdaqning asarlaridan biz jamiyatdagi barcha sinf vakillarining, boylarning, bo'lisliklarning, podsho-xonlarning, mulla eshonlarning salbiy harakatlarini, kambag'al mehnatkashlarning jonli obrazlarini ko'ramiz. Aholining iqtisodiy hayotini, turli mehnat jarayonlarini, dehqonchilik, qazish ishlarini, aholining turmush-tarzini, ta'lim-tarbiya masalalarini tasvirlaganini ko'ramiz [5;22-b.]. Masalan, "Eshonlarda muruvvat yo'q, Og'abiyda adolat yo'q, Boyda xayr-saxovat yo'q, Bir insofga kirgan emas".

Odamni imon-insof, ilm-bilim, aql-nasihat yo'llari bilan tarbiyalash, butun jamiyatni shu yo'llar bilan rivojlantirib borish qadim zamonlardan beri kelayotgan, turli davr sinovlaridan o'tgan an'anaviy yo'llardan. Shuning uchun bular bizning ma'naviy dunyomizning ajralmas va katta bir qismiga aylanib ketgan.

Bilgir so'zin tinglamagan,
Gap ma'nosini anglamagan,
Kattalardan nasihat olmagan
Aqlsizlik bo'lgan ekan.

Ushbu fikr axloq va ijtimoiy munosabatlarning bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki jamiyatda insonning shakllanishi tarbiya va o‘zaro muloqot orqali amalga oshadi. Donishmandlarning pand-nasihatlari, avlodlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi jamiyat barqarorligi uchun juda muhim. Agar inson bunday maslahatlarni e’tiborsiz qoldirsa, u o‘z hayotida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishi va jamiyatdan uzoqlashishi mumkin. Amerikalik siyosatchi Benjamin Franklin o‘zining yutuqlari siriga to‘qtalar ekan, “men hesh narsa haqida yomon so‘z aytmayman. Lekin har kim haqida bilgan hamma yaqshiliklarini aytib yuraman” degan edi. Bu fikr axloqiy va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan juda chuqur ma’no kasb etadi. Benjamin Franklinning ushbu so‘zlari insonlarning o‘zaro munosabatlarida ijobiylik va hurmat muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ushbu fikrni axloq va jamiyat kontekstida quyidagicha tahlil qilish mumkin: Franklinning g‘oyasi axloqiy barkamollikka intilishni ifodalaydi. Yomon gapirish – g‘iybat, tuhmat yoki hasad kabi salbiy his-tuyg‘ularni targ‘ib qiladi, bu esa insoniy munosabatlarga zarar yetkazadi. Aksincha, boshqalar haqida faqat yaxshi gapirish insoniy fazilatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, mehr-oqibat va do‘stlikni mustahkamlaydi. Benjamin Franklinning bu fikrni ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq holda tahlil qilsak, jamiyatda bunday yondashuv ishonch muhitini shakllantiradi. Agar insonlar bir-biri haqida faqat yaxshi gapirishsa, bu o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, siyosat, ta’lim, ish muhitida muhim, chunki insonlarning bir-biriga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Berdaq insonlar o‘zaro hurmatda, odob bilan gaplashishini targ‘ib qiladi. Bu hozirgi davrdagi ijtimoiy birdamlik va bag‘rikenglik uchun ham juda muhim, ya’ni, Yomon aytma, yaxshi so‘zla, Haq ishga hech o‘ylanma” (Berdaq asaridan parcha).

Berdaq ham Benjamin Franklin ham so‘zning kuchini chuqur tushungan insonlardir. Ikkalasining fikrida ham so‘z–jamiyatni birlashtiruvchi yoki ajratuvchi qudratga ega. Shuning uchun ular yomon so‘zdan tiyilishni, yaxshi so‘z orqali insonlar orasida ijobiy muhit yaratishni targ‘ib qiladilar. Bugungi zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda ham, o‘qituvchilikda, rahbarlikda yoki oddiy oilaviy muomalada insonning yomon jihatlarini aytishdan ko‘ra, yaxshi jihatlarini e’tirof etish foydaliroq natija beradi. Bu ijtimoiy munosabatlarda motivasiyani kuchaytiradi, ziddiyatlarni kamaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Berdaqning nazarida, ijtimoiy adolat – bu har bir insonning jamiyatdagi o‘rnini adolatli tarzda belgilash, uning mehnatini qadrlash, fikriga quloq tutish va uning hayotiy ehtiyojlarini inobatga olish demakdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Berdaqning ijtimoiy adolatga oid qarashlari insonparvarlik bilan chambarchas bog‘liq. U adolatni insoniyat taraqqiyotining mezoni, insonparvarlikni esa shu taraqqiyotning ma’naviy asosi sifatida ko‘radi. Uning gumanistik qarashlari bugungi kunda ham insonlar orasida hurmat, bag‘rikenglik va ijobiy muloqotni rivojlantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati (references):

(1). A.Madvaliyev. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati: lug‘at. Toshkent, “Sahhof” nashriyoti, 2021, 304-bet.

(2). Фалсафа: энциклопедик луғат. ЎзР ФА, И.Муминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010, 10-bet.

(3). Kalanov, K., Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2020, 176-bet.

(4). И.Каримов, С.Валиева, К.Туленова. Ижтимоий фалсафа (услубий қўлланма). Тошкент, 2008, 120-бет.

(5). Бердақ. Танламалы шығармаларының жыйнағы. Сағийтов И.Т., Юсупов И., Мақсетов Қ., Жумамуратов Т., Кәримов А., Қайыпназаров Б., Муртазаев А., Ҳамидов Ҳ. Нөкис, 1977, 22-бет.

(6). Жәримбетов К. Бердақтың насиятлары – бизии руўҳый гәзийнемиз. Бердақтың дидактикалық лирикасы ҳаққында. Некис, КР «Руўҳый мәденият ҳәм ағартыў» жәмийетлик орайы, 1998, 3-бет.

Ahmedov Farruh Nurmuhammad o‘g‘li (Renessans ta’lim universiteti; farruhnuriy85@g.mail.com)

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING G‘OYAVIY TARBIYASI

Annotatsiya. *Insoniyat tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma’lumki, jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z maqsad va intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqalarni ham shu g‘oyalar ta’siriga tortishga, o‘z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qilib kelgan va u davom etaveradi. Bunda ushbu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat va ta’lim-tarbiya jarayoni hamda axloqiy o‘zgarishlar jarayoni muhim ahamiyatga ega. G‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, g‘oyaviy tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Maqolada yangi O‘zbekiston yoshlarining g‘oyaviy*